

“O‘zkimyosanoat” AJ matbuot xizmati tomonidan OAV vakillari uchun Chirchiq kimyo industrial texnoparkiga press-tur tashkil etildi

// 12 December 2025 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-matbuot-xizmati-tomonidan-oav-vakillari-uc>



Bugun “O‘zkimyosanoat” AJ matbuot xizmati tomonidan OAV vakillari uchun Chirchiq kimyo industrial texnoparkiga press-tur tashkil etildi.



Tadbirda OAV vakillari texnopark hududida amalga oshirilgan bir qator sanoat loyihalari bilan yaqindan tanishdilar. Jumladan,

- ko'piklantirilgan polipropilen mahsulotlari — "Rhodium polimer" MCHJ QK
- maishiy va avtomobil kimyoviy mahsulotlari - "BCG Group OZ" MCHJ XK
- shovqin va issiqlik izolyatsiyasi mahsulotlari — "Standartplast SA" MCHJ XK
- bir martalik tibbiy kiyim va to'shak ishlab chiqarish — "Zdravmedtex Aziya" MCHJ XK
- professional ovoz jihozlarini ishlab chiqarish — "DHMT GLOBAL" MCHJ
- avtomobil konditsionerlari uchun shlang va trubkalar ishlab chiqarish — "IOTA" MCHJ XK
- kabi korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini ko'zdan kechirib, texnopark tomonidan rezidentlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lishdi.

Ta'kidlash lozim, texnoparkda mahalliyashtirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport salohiyatini oshirish hamda yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha salmoqli natijalarga erishilmoqda.



Xususan, birgina 2025 yilning o'zida texnoparkda umumiy qiymati 36,5 mln AQSH dollarlik 8 ta loyiha ishga tushirildi. Natijada 312 nafar yangi ish o'rni yaratildi. Rezidentlar tomonidan shu kunga qadar umumiy qiymati 100 mln AQSH dollari miqdoridagi investitsiyalar o'zlashtirilib, 954 mlrd so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.



Shu bilan birga, texnopark hududida ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash, kasb-hunarga o'qitish hamda hamkorlik aloqalarini kengaytirish maqsadida joriy yilda Toshkent kimyo-texnologiya instituti bilan hamkorlikda "Intellectual kimyo-texnologiya tizimlari" ilg'or muhandislik maktabi tashkil etildi.



Bu yerda magistr bosqichidagi talabalar uchun kimyoviy texnologiya, texnologik jarayonlarni va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish hamda kimyoviy texnologik jarayonlar va apparatlar mutaxassisliklari bo'yicha o'quv jarayonlari olib borilmoqda.



Tadbir davomida OAV vakillarini qiziqtirgan savollarga texnopark vakillari tomonidan batafsil javob berildi.



